

IXTISOSLASHTIRILGAN YORDAMCHI MAKTABDA TA'LIM TIZIMI**Laylo Sharapovna Nurmuxamedova***Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti professor v/b*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, nogironligi bo'lgan va alohida yordamga muhtoj bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hamda ta'lim tizimida ularning integratsiyasini ta'minlash masalalari yoritilgan. Mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va ta'limiy islohotlar asosida maxsus ehtiyojli bolalarga sifatli ta'lim-tarbiya berish, ularni jamiyat hayotiga moslashtirish, ijtimoiy faolligini oshirish hamda ularning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashning huquqiy va tashkiliy asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlarida belgilangan vazifalar, nogiron bolalar uchun yaratilayotgan sharoitlar hamda oila, maktab va mahalla hamkorligining ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: nogironligi bo'lgan bolalar, maxsus ta'lim, inklyuziv ta'lim, korreksion pedagogika, ijtimoiy himoya, inson huquqlari, barkamol avlod, rehabilitatsiya.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы обеспечения прав и свобод человека, социальной поддержки детей с ограниченными возможностями здоровья и детей, нуждающихся в особой помощи, а также обеспечения их интеграции в систему образования в Республике Узбекистан. На основе проводимых в стране социально-экономических и образовательных реформ анализируются правовые и организационные основы предоставления качественного образования детям с ограниченными возможностями здоровья, их адаптации в обществе, повышения социальной активности и поддержки личностного развития. В статье также освещаются задачи, обозначенные в указах и постановлениях Президента Республики Узбекистан, условия, создаваемые для детей с ограниченными возможностями здоровья, и важность взаимодействия семьи, школы и местного сообщества.

Ключевые слова: дети с ограниченными возможностями здоровья, специальное образование, инклюзивное образование, коррекционная педагогика, социальная защита, права человека, гармоничное поколение, реабилитация.

Annotation: This article discusses the issues of ensuring human rights and freedoms, social support for children with disabilities and those in need of special assistance, and ensuring their integration into the education system in the Republic

of Uzbekistan. Based on the social, economic, and educational reforms being implemented in the country, the legal and organizational foundations of providing quality education to children with special needs, adapting them to society, increasing their social activity, and supporting their personal development are analyzed. The article also highlights the tasks set out in the decrees and resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan, the conditions being created for children with disabilities, and the importance of family, school, and neighborhood cooperation.

Keywords: children with disabilities, special education, inclusive education, corrective pedagogy, social protection, human rights, harmonious generation, rehabilitation.

O'zbekiston Respublikasi demokratik huquqiy davlat qurish yo'lidan borar ekan, inson huquq va erkinliklarini ta'minlab, jamiyatni ma'naviy jihatdan boyitib borishni, dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvni amalga oshirmoqda. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz, - deb takidlaydi Sh.Mirziyoyev. Mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy hayotida amalga oshirilayotgan tub islohatlar jamiyatimiz oldiga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblangan ta'lim tizimini yangilash va yosh avlodni zamon talablariga javob bera oladigan barkamol inson etib tarbiyalash, ular ongiga mustaqillik g'oyalarini singdirishdek muhim vazifalarni qo'ymoqda. Mamlakatimizda 2017-yil 1-avgustdagi "Nogironlarni davlat tomonidan qo'llab – quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularni to'laqonli ta'lim olishi, jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlashi, ularni sog'lomlar qatorida jamiyatga uyg'unlashib, ijtimoiy hayotda moslashib ketishiga oid chora-tadbirlarni takomillashtirishni ko'zda tutadi. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirini beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining to'rtinchi ustuvor yo'nalishida "aholini ijtimoiy himoya qilish, nogiron, aholining boshqa ehtiyojmand toifalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi"ni kuchaytirishga alohida e'tibor berildi. [2.39] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmonida belgilangan vazifalarga muvofiq, yosh avlod, xususan eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslarni og'zaki nutqini muloqat quroli sifatida rivojlantirish orqali ularni ma'naviy yetuk, har tomonlama uyg'un va barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual

salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yosh avlod sifatida tarbiyalab voyaga yetkazish vazifasini izchil davom ettirish uchun aniq maqsadga qaratilgan keng ko'lamdagi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, davlat va jamiyatning barcha kuch va imkoniyatlarini shu yo'lda safarbar etish lozimligi bilan ifodalanadi. [2.39] Shu bilan birgalikda barkamol va sog'lom avlodni tarbiyalashda ekologiya kabi muhim omillar ham inobatga olinmay qolmayapti. Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar, alohida ehtiyojli odamlar orasida oligofren bolalar son jixatdan nisbatan ko'proq uchrab turadi. [7] Hozirgi kunda ular maxsus yordamchi maktabgacha tarbiya muassasalarida va yordamchi mehnat ta'limi maktablari, maktab – internatlari yoki umumta'lim muassasalarida me'yorida rivojlangan tengdoshlari orasida integratsiyalashgan ta'limga jalb etib hamma qatori oddiy sinfda yoki yordamchi sinflarda ta'lim olmoqdalar. [3] Ushbu muassasalarning asosiy vazifasi aqli zaif bolalar ijtimoiy adaptatsiyasini amalga oshirish, ya'ni aqlan zaif bolalarni mustaqil hayotga tayyorlash, ularni jamiyatda o'z o'rnini topib, hamma qatori mehnat qilib, yashab ketishiga yordam berish. Butun dunyo Deklaratsiyasi hamda bolalik huquqlari haqidagi Butun Dunyo Konvensiyasi kabi hujjatlarda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida ham "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 23-moddalarida va maxsus qonunlarda jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan hamda uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalarni o'qitish, tarbiyalash hamda davolash uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarini tashkil etish ta'kidlab o'tiladi. Yordamga muhtoj bolalardagi nuqsonlarni bartaraf etish, korrektsiyalash va rivojlantirish ishlarini amalga oshirishda oila maktab va mahalla bilan hamkorlikda bo'lish va ularga yordam berish katta ahamiyatga ega bo'lib, u davlat tomonidan kafolatlangan. [4.89] Ushbu talablarga tayangan holda yordamga muhtoj bolalarga ta'lim-tarbiya berish va ularni hayotga moslashtirish maxsus bilim va nogiron bola xususiyatlarini bilgan holda yondashishni talab etadi. Bugungi kunda imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy himoyalash ta'lim olish barcha qatori umumta'lim muassasalarida teng huquqli sharoitda ta'lim-tarbiya olish dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Mamlakatimizda alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning sog'lom tengqurlari qatori milliy ruhda tarbiyalanishlari, aqliy, ma'naviy-axloqiy, jismoniy jihatdan kamol topishlari, jamiyatdagi ijtimoiy hayotga mustaqil, yetuk fuqarolik darajasida tayyor bo'lib yetishishlari masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Jamiyatimizda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar yuz berayotgan bir vaqtda Vatan ravnaqini ko'zlash maqsadida asosiy e'tibor yoshlarning aqliy, ahloqiy, jismoniy barkamoligiga demak, har tomonlama yetuk, sog'lom avlodni o'stirishga qaratilyapti. Mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritgan davrni sarhisob qilsak, hukumatimiz tomonidan inson manfaatlarini ko'zlash va himoyalash jarayonida jamiyatimizning alohida yordamga muhtoj qatlamiga jiddiy

e'tibor qaratib kelinayotganini kuzatamiz. O'zbekiston Respublikasi demokratik huquqiy davlat qurish yo'lidan borar ekan, inson huquq va erkinliklarini ta'minlab, jamiyatni ma'naviy jihatdan boyitib borishni, dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvni amalga oshirmoqda. Nogironlikni oldini olish bilan bir paytda ularni ijtimoiy reabilitatsiya qilish, ularni ishlash muxitini yaxshilash va sog'lamlashtirish, maxsus korreksion-pedagogik ishlar olib borish orkali ular nuksonlarni korreksiyalash, ularni kasb-xunarga yunaltirish va tayyorlash kabi murakkab, ammo savobli ishni amalga oshirish hozirgi zamon talabidir. Shu o'rinda alohida qayd etish zarurki, yurtimizda yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, voyaga yetkazish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilyapti. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilinib, u izchil amalga oshirilmogda, yosh avlod tarbiyasiga alohida e'tibor qilinmogda.

Xulosa. O'zbekiston Respublikasi demokratik huquqiy davlat sifatida inson manfaatlarini ta'minlash, ayniqsa, alohida yordamga muhtoj bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab olgan. Bugungi kunda mamlakatimizda nogiron bolalarning to'laqonli ta'lim olishi, kasbiy tayyorgarlikdan o'tishi, sog'lom jamiyat a'zosi sifatida kamol topishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmogda. Prezident farmon va qarorlarida belgilanganidek, har bir bolaning ta'lim olish, rivojlanish va ijtimoiylashuv huquqini ta'minlash orqali ularning jamiyatda o'z o'rnini topishiga ko'maklashish davlat siyosatining asosiy maqsadiga aylangan. Maxsus ta'lim tizimining rivoji, korreksion-pedagogik yondashuvlarning takomillashuvi, oila, maktab va mahalla hamkorligining kuchaytirilishi natijasida alohida yordamga muhtoj bolalarning hayot sifati, bilim darajasi hamda ijtimoiy faolligi oshmogda. Shu bois, bugungi kunda imkoniyati cheklangan bolalarni sog'lom tengdoshlari qatori har tomonlama rivojlantirish, ularning ta'limga bo'lgan teng huquqlarini ta'minlash va barkamol, ijtimoiy mas'ul shaxs sifatida voyaga yetkazish – O'zbekistonning insonparvar va demokratik siyosatining amaliy ifodasi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2020. – 46 b
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. – T., 2017. – B. 39.
3. Смирнова А.Н. Коррекционно-воспитательная работа учителя вспомогательной школы. – М., 2015
4. Усанова О.Н. Дети с проблемами психического развития. – М.: 1995. – 89 б.

5. Nurmuxamedova L.Sh. Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari. Ped. fan. nomz. dis. ... avtoref. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
6. Nurmuhamedova L.Sh. Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar ma'naviyatini shakllantirishda oilani ta'siri. – T., 2005.
7. P.Po'latova, L.Nurmuxamedova, Sh.Amirsaidova. Maxsus pedagogika. – T.: Fan va texnologiyalar, 2014.
8. Nurmuxamedova L.Sh. Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari. Ped. fan. nomz. dis. ... avtoref. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
9. Nurmuhamedova L.Sh. Aqliy yordamga muhtoj bo'lgan bolalar ma'naviyatini shakllantirishda oilani ta'siri. – T., 2005.